



MUSOXONXOJA DAHBIDIY ASARLARIDA XOJAGON-NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDAGI RASHHALARNING TAHLILI

Yuldashxodjayev Haydar Hashimxonovich

Yangi asr universiteti kafedra mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi

+99893-398-35-96

haydarxon69@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil

Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil

Jurnal soni: 16

Maqola raqami: 41

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1278>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

hadis, shariat, sufiy, irfon, komil inson, komil jamiyat, noqislik, "kamolot", odamning yaratilishi, nafs, mushohada, tajalliy.

Ushbu maqolada Naqshbandiya–Mujaddidiya tariqatining yirik namoyandalardan biri bo'lgan Musoxon Dahbidiyning tasavvufiy qarashlari, xususan, uning "komil inson" tushunchasiga bergan o'ziga xos talqinlari tahlil etiladi. Muallif o'z asarlarida inson kamolotiga erishish jarayonini nafaqat individual ruhiy poklanish, balki jamiyat kamoliga xizmat qiluvchi ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida ko'rsatadi. Dahbidiy tafakkurida "komil inson" g'oyasi Naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyillari — "dil ba yoru, dast ba kor", "xilvat dar anjuman", "safar dar vatan" kabilar bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Maqolada shuningdek, mutasavvifning "komil jamiyat" haqidagi qarashlari, insondagi "noqislik" va "kamolot" tushunchalarining falsafiy mohiyati ham tahlil qilinadi. Musoxon Dahbidiy inson yaratilishining ilohiy maqsadini, ruh va jism birligining sirlarini sharhlab, har bir muridning kamolot sari intilishi orqaligina jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratilishini ta'kidlaydi. Muallif asarlarida pirlik va shayxlik maqomiga ham alohida e'tibor qaratib, ushbu darajani "eng mukammal maqom", ya'ni ilohiy haqiqatga yaqinlashgan, boshqalarga yo'l ko'rsatuvchi yetuk inson holati sifatida talqin etadi. Maqola Musoxon Dahbidiy merosi misolida Naqshbandiya–Mujaddidiya ta'limotining inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, hamda zamonaviy ma'naviy hayot uchun ahamiyatini ochib beradi.

Kirish. Musoxon Dahbidiy asarlarida inson va uning kamoloti masalasi.

Insonning yaratilishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yogga chiqarishga intilaveradi.

Komil inson g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezigulikka undaydigan oliyjanob tuyg'udir. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq tanazzulga mahkumdirl.

Tasavvuf, o'zining chuqur falsafiy va axloqiy mazmuni bilan insoniyat tarixining turli davrlarida ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, Naqshbandiya tariqatida insonning ruhiy o'sishi, uning kamolot sari intilishi va jamiyatga bo'lgan munosabati alohida o'rin tutadi. Bu ta'limotda "komil inson" va "komil jamiyat" tushunchalari nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat, ahloqiy fazilatlar va o'zaro hurmatning shakllanishi bilan bog'liq.

Shu o'rinda, komil insonning jamiyatdagi o'rni va uning ijtimoiy vazifalari o'ziga xos ahamiyatga ega. Kamolot sari qadam tashlagan har bir inson, o'zida jamiyatdagi boshqa odamlarni o'zgartirish, ularni yaxshilik va ezigulikka yetaklash qobiliyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, komil jamiyatning shakllanishi hamda uning ijtimoiy va ma'naviy jihatlari, albatta, komil insonlarning to'g'ri yo'nalish va prinsiplar asosida tarbiya topishiga bog'liqlidir.

Ushbu maqolada Musoxon Dahbidiy tomonidan ilgari surilgan "komil inson" va "komil jamiyat" tushunchalarining nazariy asoslari, insondagi "noqislik" va "kamolot" tushunchalarining bir-biri bilan bog'liqligi, shuningdek, tasavvufiy amaliyotda bu tushunchalarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqida batafsil tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Tasavvuf adabiyotida "komil inson", "noqislik" va "kamolot" tushunchalari keng talqin etilgan asarlar talaygina. Ana shunday asarlardan biri – "Masnaviyi sharif", "Ma'naviyat dengizi",

"Tasavvuf qomusi", deb dong taratgan Mavlono Rumi qalamiga mansub "Ma'naviy-masnaviy" asaridir. U Haqiqat taronasi, Haq madhi, Insonning komil yo'riqnomasidir. Mavlono Rumi odamni tadqiq etadi, uning tabiati va intilishlarini kuzatadi, botiniy jilolar va surilishlar, qalb siljishlarini qidirib topadi. Insonning iymon gavhari, buyukligi barobarida, nuqsonlari — nafs, hirs oqibatida kelib chiqadigan yovuzliklarni tahlil etib, bulardan qutulish, poklanish yo'llari, fazilatini bayon etadi. Shu taxlit, insonning ma'naviy kamoloti yo'llari, ma'rifatli bo'lish, fayzu futuhga, payg'ambar sunnatiga sodiq bo'lishning ahamiyati, muhimligi yoritiladi. Rumiyaning har bir fikri—bir mash'ala, bir chiroq, shundoqqina qalbga quyiladigan ziyodir. Ulug' mutafakkir inson kamoloti uchun muqtadir bir kurashchi bo'lib maydonga chiqadi, inson bolasini uning o'ziga tanishtiradi, yomonlikdan nafratlanish va yaxshilikdan, ilohiylikdan faxrlanishga o'rgatadi.¹

N.Komilovga ko'ra, komil inson — bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu surati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmolim pokiza zot.

Komil inson, shunday qilib, odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi, u go'yo Mutlaq Iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas xilqat. Bunday martabaga musharraf insonlarni valiulloh, qibla, qutb, g'avs (madadkor), avtod (ustunlar), abdol (badal qilingan) deb ham ulug'laganlar.

Tasavvuf o'z usuli, haqiqat deb topgan yo'li bilan shu maqsad sari intilgan. Tasavvuf ahli sig'ingan ideal — Komil inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi. Bu hayotbaxsh ta'limotning peshvolari yaratgan asarlar, so'fiyona ruhdagi she'ru dostonlarni mutolaa qilar ekanmiz, yorug'likning zulmga, fayzu kamolning nuqsu noqislik, kaltafahmlik va nodonlikka qarshi omonsiz jangiga guvoh bo'lamiz.

Attor va Navoiy nazdida chinakam kamolot ishq orqali amalga oshadi².

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tasavvuf falsafasi, Naqshbandiya–Mujaddidiya tariqati ta'limoti hamda komil inson konsepsiyasiga oid klassik va zamonaviy manbalarni qiyosiy tahlil qilish tashkil etadi.

Musoxon Dahbidiyning asarlari va u haqidagi manbalar manbashunoslik prinsiplari asosida o'rganilib, uning tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, ijtimoiy va diniy-ma'naviy omillar tahlil qilindi. Shuningdek, Dahbidiy fikrlarining

¹ "XI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №1, 2024 yil

² Комилов Н. Tasavvuf. Birinchi kitob. -T.: Ёзувчи, 1996. – 131 б.

Naqshbandiya–Mujaddidiya maktabidagi boshqa mashhur mutasavviflar ta’limoti bilan taqqosiy o’rganilishi amalga oshirildi.

Tadqiqotda kontent-tahlil usuli orqali Dahbidiy asarlarida uchraydigan “komil inson”, “kamolot”, “noqislik”, “ruh”, “pirlik” kabi asosiy tushunchalarning semantik maydoni aniqlanib, ularning tasavvufiy va falsafiy talqini yoritildi. Shu bilan birga, muallif qarashlarining ijtimoiy-axloqiy mazmuni zamonaviy ma’naviy hayot kontekstida aks ettirish usuli bilan tahlil qilindi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi Musoxon Dahbidiyning komil inson haqidagi qarashlarini Naqshbandiya–Mujaddidiya tariqatining asosiy tamoyillari bilan uzviy bog’liq holda ilmiy-nazariy tahlil etishga imkon berdi.

Natijalar. Ma’lumki, har qanday jamiyat alohida insonlardan tashkil topadi. Adolatli va yetuk, komil jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin³. Inson kamoloti barcha qadimgi bitiklar va falsafiy manbalarda asosiy g’oya bo’lgan.

Butun ma’naviyat tarixi shuni ko’rsatadiki, sivilizatsiya degani – bu insonning o’z-o’zini anglashi, o’zini kamol toptirish uchun olib borgan kurashining hosilasidir. Barcha dinlar, ta’limotlar, tafakkur daholari inson qobiliyati, ruhiyati va axloqini o’rganish, insonni tarbiyalab, to’g’ri yo’lga boshlash, noqisliklar va illatlardan xalos etish bilan shug’ullanib keldilar. Qur’oni karimning Al-isro surasida “Va laqad karramno bani odama” (Biz odam bolalarini azizu mukarram qilib yaratdik), deyiladi. Inson yaratilishining maqsadi Haq ma’rifati, ya’ni yaratilgan jonzot ichida inson Allohni tanish va bilish iste’dodiga egadir. Alloh insonni aql-idrok va komillik bilan sharaflantirgan. Inson ruhiyatining zabardast tadqiqotchisi Jaloliddin Rumiy ruhni inson mohiyati, uning tabiatdagi boshqa jonzotdan farq qiluvchi belgisi sifatida tushuntirgan:

Tingla naydin, chun hikoyat aylagay,
Ayrilqlardind shikoyat aylagay⁴.

“Masnaviy”da tilga olingan nay – insoniy ruh, oriflik martabasiga erishgan komil insondir. Baytdagi hikoyatning irfoniy ma’nosi quyidagicha: inson ruhi “olami malakut” (ruhlar olami)da Haqning ishq, ma’rifati bilan mashg’ul va “mustag’raq” (g’arq) edi. “Olami nosut” (jismlar olami)ga bog’lanib qolganidan so’ng, jismoniy sifatlardan bo’lgan shahvat va g’azab ruhga g’olib keldi. Uning ruhoniylar sifatleri, ya’ni muhabbat, ma’rifat va istiqomatida nuqson paydo bo’la boshladi. Ruhda hol-mastlik (sukr) holati paydo bo’lsa, komil inson suhbat, ishq va ahli ishq mutolaasi, dalil-hujjat yoki ishq mastligi orqali ruhiy holati, asliy sifatlerini eslaganida o’z aslini yo’qotgani va nafsiga mag’lub bo’lganini “qol” tili (oshkora) yoki “hol” tili (yashirin) bilan izhor etadi.

Komil inson tushunchasi birinchi marta Muhyiddin Ibn Arabiy tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz. Ibn Arabiy nazdida “komil inson-bu aqli avval yoki nafi avval, aqli kul”⁵ tushunchalari bilan ma’nodoshdir. Chunki Tangri taolo ilohiy nurdan ilk marta Aqli avvalni yaratdi va uning suratu shaklini inson qiyofasida zuhur etdi.

Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining namoyondasi Musoxon Dahbidiy risolalarini tahlil qilganimizda, mutasavvif inson va uning kamoloti masalasini irfoniy-falsafiy ochib berganligini guvohi bo’ldik.

Allomaning fikricha, “Alloh nuqs va hudus simotidan munazzah (pok) va mubarrodir. Chunki kamoli tazallul va xuzu’ va inkisor (siniqlik)dan iborat bo’lgan ibodatga mustahik bo’lgan narsa-insondir. Barcha kamolot unga (Allohga) sobitdir. Va barcha nuqsonlar undan maslubdir. Vujudagi va vujudga tobe bo’lgan hamma narsa unga muhtojdir. Va u hech bir ishda hech narsaga muhtoj emasdir. Unga hech narsa na foyda, na zarar ko’rsata olmaydi. Va hech narsa uning izni (ruxsati) siz biror va naf’ (foйда) yetkaza olmaydi. Alloh taolodan boshqa bunday komil sifatlariga ega bo’lgan hech bir kimsa yo’q va bo’la olmaydi. Agar g’ayr (boshqa biror kimsa) bu komil sifatlariga bekamu ko’st va benuqson mutahaqqiq bo’lganda edi g’ayr bo’lmas edi⁶.

Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko’p asarlar bitilgan. Ana shunday kishilardan biri XIII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy bo’lib, “Insoni komil” nomli risolasida komil insonga ta’rif berib, shunday

yozadi: “Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo’lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirmekim, unda quyidagi to’rt narsa kamolatga yetgan bo’lsin: yaxshi so’z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif”⁷.

Musoxon Dahbidiy fikricha, olami kabir ajzo (qism)larining eng ashrifi (sharaflirog’i) arshi majiddir. Unga xos bo’lgan tajalliy boshqa ajzolar tajalliyotidan ustundir. Chunki u tajalliy jomedir. Va u mustajma’i samo va sifoti vujudiydir. Va(yana) u doimiy tajalliydir. Komil inson qalbining arshga munosabati bor. Uni arshulloh deydilar. O’sha arshiy tajalliydan ko’p nasibador bo’ladi. Ul tajalliy kulliyidir. Va bu tajalliyning o’sha tajalliyga nisbati bor. Arshda esa yo’q. Va u shutajalliyga shuurdur. Va yana qalb mazhardir va zohiriga giriftorligi bor. Arsh esa o’sha giriftorlikdan xolidir. Bas, qalbg shuur(ong) vositasida va giriftorlik vositasida taraqqiy maqsudi mumkin va bor narsadir. Zeroki “almar’u maa man ahabbu” hukmiga ko’ra, qalb kishi bilandir va unga bog’liqligi bor, uning muhabbatining maftunidir. Agar muhib asmo(ismlar) va sifatlar bo’lsa, u (qalb) o’sha asmo va sifatlar bilandir. Agar muhib zoti taolo va taqaddas bo’lsa, dil u bilan birgadir⁸.

Mutasavvif fikru qarashlarida inson yuksak maqomni egallaydi. Uning ta’biricha, odam borliq mevasidir. Vujud silsilasining martabalari uning xizmatida. Olam yaratilishi, barcha ulug’lik va azamatligi bilan bir insondek hisoblanadi. Odam yolg’iz holda barcha olamlarning jamlovchisidir. Qalb doirasining markaziy nuqtasi esa Haqdur. Qalblarning ismi A’zamga yetishuvidan tug’ilgan bu nido va fig’onlar ixtiyor va irodasidan ozod bo’lsagina pok va xolis bo’ladi. Agar u ixtiyor va irodadan ajrala olmasa, bu nidolar ixlos saroyiga aslo kira olmaslar.

Musoxon Dahbidiy komil inson deb Muhammad (S.A.V) ni biladi. “Bilmoq kerakki, hazrati payg’ambarimiz (S.A.V.) ikki ism bilan ismlangandirlar. Ul zotning ikkala muborak ismlari Qur’oni majidda yashirilgandir. Birinchi ismlari Muhammadu-r-rasulullohdir. Va yana ruhulloh bashorat qilib aytgan hikoyalarida ismuhu Ahmad. Har ikkala ismning valoyati alohidadir. Valoyati Muhammadiy garchi uning mahbubiyat - maqomidan kelib chiqqan bo’lsada ammo mahbubiyati sirf (pok mahbubiyat) bo’lib, muhabbatdan bir belgi bordir. Va valoyati Ahmadiy mahbubiyati sirfdan kelib chiqqandirki muhabbat shoibasi yo’qdir. Bu valoyat oldingi valoyatdan peshqadamdir. Va bir marhala (masofa) matlubga yaqinroqdir. Va muhibga marg’ubroqdir. Mahbub garchi (har qancha) mahbubiyatda yetuk bo’lsa ham, uning istig’no va beniyozligi (muhtoj emasligi) komilroq (yetukroq) bo’ladi. Va muhabbat nazarida zeborok (go’zalroq) va ra’noroq ko’rinadi. Muhibni ko’proq mutajazzib qiladi.

Bayt:

Na tanho ofatam zeboi u-ast,
Baloi man zi nparvoi u-ast⁹.

Mazmuni: Mening ofatim faqat uning go’zalligi emas, Mening baloyim uning beparvoligidandir.

Maxdumi A’zam ta’limoticha, qachonki inson aytib o’tilgan yo’llar orqali ko’ngil ko’zgusini har qanday zangu g’uborlardan pokiza qilsagina, o’sha zamon haqiqiy mahbub jamol va jalol sifatida ko’ngilning ko’zgusida tajalliy (namoyon bo’lishi) qiladi:

Rab (Haq) ning zoti tajalliy qilar bo’lsa,
Qasam berdim senga g’ofil qolmagil.
Har bir nafasing bilgil bir gavhardur,
Har bir zarrang Haq yo’liga rahbardur.¹⁰

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Musoxon Dahbidiyning “komil inson” haqidagi qarashlari Naqshbandiya ta’limotining asosiy tamoyillari — “dil ba yoru, dast ba kor”, “xilvat dar anjuman”, “safar dar vatan” kabi g’oyalar bilan uzviy bog’langan. Mutasavvif inson kamolotini shaxsiy ma’naviy yuksalish bilan bir qatorda, jamiyatning ma’naviy barkamolligiga olib boruvchi yo’l sifatida talqin etadi.

³ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021. – Б.419.

⁴Мавлоно Жалолiddин Румий. Маснавий маънавий. – Б. 8.

⁵Комил Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. -Т.: Ёзувчи, 1996. – 145 б.

⁶ Musoxon Dahbidiy. Zubdat al-hakā’ik. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 46б.

⁷ Комил Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. Т.: Ёзувчи, 1996. 147-бет.

⁸ Musoxon Dahbidiy. Zubdat al-hakā’ik. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 51б.

⁹ Musoxon Dahbidiy. Zubdat al-hakā’ik. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 79а.

¹⁰ Махдуми Аъзам Дахбидий. Рисола - йи вужудия. –25 в.

Muhokama. Musoxon Dahbidiy komil insondagi mahbubiyiyat, muhibbiyyat va muhabbat masalasiga alohida e'tibor beradi. "Mahbubiyiyati zotiyya kamolotining zuhuri xotamu-n-nabiyyin (S.A.V) ga masallamdir. Mahbubiyiyat tomonida ikki kamol bordir: fe'liy va infoliy. Fe'l asldir va infiol unga tobe. Lekin infiol g'oyibiy illatdir. Garchi vujudda mutaaxxir bo'lsa-da, ammo tasavvurda mutaqqaddim. Muhabbatiyya kamoloti zuhuri hazrati Kalimullohga (Muso a.s) nasib bo'lgandir. Nafsi muhabbat abu-l-bashar hazrati Odam (alo nabiyyiyu va alayhi-s-salot vasalom) ga avvalo o'sha joyda mashhud bo'ldi (ko'rindi) va keyinchalik hazrati Ibrohimga ham o'sha yerda mashhud bo'ldi. Uchinchi marta hazrati Nuh ham o'sha e'tiborda nazarga kirdi. Val – amru ilalloh subxonahu hazrati zoti ta'olo va taqaddis, chunonchi, o'zini do'st tutadi. O'zining asmoiy, sifotiy va af'omiy kamolotini ham do'st tutadi. Hazrati zoti taolo va taqaddisning o'z asmo va sifotiga bo'lgan bu muhabbatining zuhuri hazrati Xalilda batamom bordir. Asmoiy va sifotiy va af'oliy mahbubiyiyat zuhuri boshqa payg'ambarlarda ham muhaqqiqdir. Bularning muhabbati zuhuriga o'xshash, vujud, asmo, sifot va af'olning soyalari bordir. O'sha zilol mahbubiyatining zuhuri ularning usullari vositasida avliyoi mardon va mahbublarning nasibidir. Avliyoi muridin va muhibinlarga muhabbat shaklida nasib bo'lgan o'sha zilol muhabbati zotiyya maqomidan yuqori bo'lgan «xubb maqomidirki, ularning ijmo'i va rizo maqomi muhabbat va xubb» dan ustundir. Rizo martabasi muhabbat martabasidan yuqoridir. Chunki muhabbatda vujud nisbatdir. Rizo maqomida hazrati zotga munosib bo'lgan hadafi nisbat bordir.¹¹

Mahbub (Alloh - H.Yu.) sevgisining alangasi oshiq qalbidagi tutashganidan keyin, uning qalbidagi haqiqiy mahbub vasli yo'lida to'sqinlik qilib turgan barcha hijoblarni yondirib tashlaydi.

Musoxon Dahbidiy inson tushunchasini irfoniy tahlil qilib quyidagi fikrni keltiradi: "odamzod jomea bir nusxadirki, u ajzoi asharadan, anosiri arbaadan, nafsi nomiqa, qalb, ruh, sir, xafiy, ifxodan tarkib topgandir. Insonga mavjud bo'lgan quvvat va boshqa javohirlar tuproqqa qaytguvchidir. Bu ajzolar (ko'rinib turgan) dir. Shuningdek xalq olamining amr olamiga bo'lgan ziddiyati huvaydo (mavjud)dir. Amr olamining har biri bir amrga maxsusdir. Nafsi nomiga ega o'z havo (havas) siga ega bo'lgan xudxohlardir. Ular bir – biriga bo'sunmaydi. Xudobandi jalla sultonahuni inoyati bu ashyoyi mutazodani o'z komil qudrati bilan har birining suratini bo'lak-bo'lak jamlab unga xos majoz va vahdoniy hay'at ato etgandir. Xos mazoe va vahdoniy hay'atdan so'ng o'z yetuk hikmati bilan unga surat bergandir. Toki ajzeoi mutafariqqa hifzi uning mutazodasini ko'rsatsin. Bu majmuani inson deb atab, jomeiyat va vahdoniy hay'at husuli e'tibori bilan xalofat iste'dodi sharafiga musharraf qilgan. Bunday davlat insondan boshqa hech bir narsaga muyassar bo'lmagandir. Olami qodir (buyuk olam) garchi buzruk bo'lsa-da jomeiyatdan xolidir va vahdoniy hay'atdan benasibdir. Bu hol barcha insoniy afrodga sobitdir. Insonning xavosi (xoslari) va avomi (oliylari) bu ma'nida sherikdirlar»¹².

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. – Б.419.
2. "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №1, 2024 йил
3. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. -Т.: Ёзувчи, 1996. – 131 б.

Mutasavvif avvalo inson kim? Nega yaralgan? Uni yaratishdan murod nima? kabi masalalarni yoritib, keyin tana va ruh aloqadorligi, uning kamoloti masalasiga to'xtalgan.

Xulosa. Musoxon Dahbidiy, Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining nufuzli mutasavvifi sifatida, inson kamolotining bosh mezon sifatida "komil inson"ni ko'rgan. U "komil inson" tushunchasini, avvalo, insonning nafaqat ruhiy, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan mukammallikka erishishi sifatida talqin qiladi. Dahbidiyning fikricha, komil inson o'zining ichki dunyosini poklash, tashqi aloqalarini to'g'rilash va jamiyatda o'zining ijtimoiy roli bilan nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham yuksaltiradi.

Dahbidiyning "komil jamiyat" haqidagi qarashlari esa, uning tasavvufiy ta'limotini jamiyat tarbiyasiga tatbiq etishning yangi yo'nalishini ochib beradi. "Komil jamiyat" – bu faqat iqtisodiy yuksalish yoki siyosiy barqarorlikdan iborat emas, balki unda har bir insonning axloqiy va ruhiy kamoloti asosiy mezon hisoblanadi. Bunday jamiyatda odamlar o'zaro mehr-oqibat, adolat va fazilatlar asosida yashashadi, shuningdek, uning a'zolari bir-biriga yordam berish va birgalikda o'sishga intilishadi.

"Noqislik" va "kamolot" tushunchalari esa, insonning o'z-o'zini anglash va o'z ichki salohiyatini ochish jarayonidagi ikki asosiy bosqichni ifodalaydi. Dahbidiy "noqislik"ni insonning ruhiy va axloqiy yetishmovchiliklari, xatolar va zaifliklari sifatida ko'radi, "kamolot" esa bularni yengish va mukammallikka erishish jarayonini anglatadi. Inson o'zining noqis tomonlarini anglab, ularni tashkillashtirish orqali haqiqiy kamolot sari yo'l oladi. Dahbidiyning fikricha, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun insonda ham ruhiy, ham ijtimoiy yuksalish bir-birini to'ldirishi kerak.

Musoxon Dahbidiy tasavvuf tafakkurining yirik namoyandalardan biri sifatida Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqati tamoyillarini chuqur falsafiy mazmunda talqin etgan mutasavvifdir. Uning asarlarida "komil inson" tushunchasi nafaqat individual ruhiy poklanish jarayoni, balki jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida yoritiladi. Dahbidiy fikricha, inson kamoloti ruh va jism uyg'unligiga, ilohiy haqiqatni anglash va uni amalda namoyon etishga asoslanadi.

Dahbidiy ta'limotida "pirlik" va "shayxlik" maqomi komil insonning eng yuksak bosqichi sifatida baholanib, bu daraja ilohiy haqiqatga yaqinlashgan, boshqalarga ma'naviy yo'l ko'rsata oladigan yetuk shaxs timsolida ifodalanadi. Shuning uchun ham Musoxon Dahbidiyning merosi nafaqat tasavvuf tarixini o'rganish, balki bugungi kunda inson ma'naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim nazariy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Musoxon Dahbidiyning "komil inson" konsepsiyasi orqali inson va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikning chuqur mohiyati ochib beriladi. Uning g'oyalari hozirgi davr ma'naviy-ma'rifiy hayotida insoniy fazilatlarini shakllantirish va komil shaxsni tarbiyalashda dolzarb ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

4. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. – Б. 8.
5. Musoxon Dahbidiy. Zubdat al-haqā'iq. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 466.
6. Махдуми Аъзам Даҳбидий. Рисола - йи вуҷудия. –25 в.

¹¹ Musoxon Dahbidiy. Zubdat al-haqā'iq. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 81А.

¹² Musoxon Dahbidiy. Zubdat al-haqā'iq. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 51А.